

MAKTABGACHA 6-7 YOSHLI BOLALARNING RIVOJLANISHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna

KDPI v/b dotsent., psix.f.f.d

Qilichova Xumora,

KDPI 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:**

Maqolada maktabgacha 6–7 yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga qo'yiladigan talablar tahlil qilinadi. Ushbu yosh guruhidagi bolalarning maktabga tayyorgarlik jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik yondashuvning ilmiy asoslari va rivojlanishning har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, 6–7 yosh, jismoniy rivojlanish, aqliy rivojlanishi ijtimoiy rivojlanish, pedagogik talablar, hissiy rivojlanish.

**Abstract:**

The article analyzes the requirements for the physical, mental, social and emotional development of preschool children aged 6–7. The specific features of children of this age group in the process of preparing for school, the scientific foundations of the pedagogical approach and comprehensive support for development are considered.

**Keywords:** Preschool education, 6–7 years, physical development, mental development social development, pedagogical requirements, emotional development.

Bugun yurtimizda mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolk jamiyat qurish yo'lidagi lkan ishlar o'zlikni anglash, imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, o'sib kelyotgan yosh avlodni har tamonlama yetuk, barkamol shahs qilib tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa maktabgacha ta'lim muassasalari zimmasiga yuklatilingan. Maktabgacha ta'lim - bolalarning ijtimoiy-hissiy, individual va yosh hususiyatlarini, qiziqishlarini, moyilligi, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda, bola shaxsini jismoniy, ruhiy rivojlanishini ta'minlovchi, shuningdek maktabga tayyorlab, hayotga zamin yaratuvchi har tomonlama maqsadli yo'naltirilgan yaxlit jarayonlarni qamrab olgan. Ta'lim sohasini isloh qilish bugungi kunda hukumatimiz tomonidan e'tibor qaratilayotgan eng muhim yo'nalishlardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonun va qarorlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni bosqichma-bosqich ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.12.2022-yildagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF- 269-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim

tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori misolida ko'radigan bo'lsak, mazkur kontsepsiyani yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Xususan, 2019-yilda O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va ta'lim to'g'risida" gi qonuni qabul qilindi. Ta'lim tizimi to'g'risida bu yangi qonunda, yangi loyihalar, islohotlar bosqichma - bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu Qonun maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillarini, ushbu sohadagi davlat siyosatining yo'nalishlarini, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, o'z tasarrufidagi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining vakolatlarini belgilaydi. Mazkur Konsepsiyada 2030-yilgacha 3-7 yoshli bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'zda tutilgan.

Ta'lim-tarbiyaga qo'yiladigan talablar 6-7 yoshda bolalar maktabga tayyorgarlik davrida quyidagi ta'lim-tarbiyaviy talablarni bajarishlari lozim ma'lumotlarni qisqa muddatda eslab qolish va qayta ishlash mashg'ulotlar davomida muayyan qoidalarni bilish va ularga rioya qilish ishlab chiqilgan ishning sifatini tushunish va o'z faoliyatini baholash.

Biz bolalarni tarbiyalashda abadiy qadriyatlarga egamiz, bu albatta yaxshi va biz kundan kunga o'zgarib turadigan vaqt talablarini hisobga olishimiz kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar. Jismoniy rivojlanishga qo'yiladigan talablar. 6-7 yosh bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning maktabga moslashuviga va kundalik faoliyatga tayyorligiga bevosita ta'sir qiladi. Jismoniy rivojlanishga qo'yiladigan talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi bolalar qo'l-oyoqlari harakatini, muvozanat va koordinatsiyani yaxshi boshqara olishi, kichik motorika (barmoq, qo'l harakatlari) rivojlangan bo'lishi lozim. Sog'lom turmushga odatlanish, yuvinish, kiyinish, ovqatlanish odatlari shakllangan bo'lishi mashqlar va o'yinlar davomida tez charchamaslik, umumiy chidamlilikni oshirish. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy rivojlangan bolalar nafaqat sport mashg'ulotlarida muvaffaqiyatli bo'ladi, balki kognitiv faoliyatda ham diqqatni uzoq vaqt jamlash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Aqliy (intellektual) rivojlanishga qo'yiladigan talablar. Bu yoshda bolalar tafakkur, eslash, til va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda faol ishtirok etishlari lozim nutq to'liq, grammatik jihatdan to'g'ri, tushunarli bo'lishi; so'z boyligi kengaytirilgan bo'lishi oddiy matematik hisoblash, shakl va ranglarni farqlash, sodda mantiqiy masalalarni yechish qobiliyati rivojlangan bo'lishi rasmlar chizish, hikoya yaratish, fantaziya orqali yangi g'oyalarni ifodalash imkoniyati kognitiv rivojlanishning yuqori darajasi bolani maktabga tayyorlaydi va o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Hissiy va ijtimoiy rivojlanishga qo'yiladigan talablar bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi ularning jamiyatga moslashish qobiliyatini belgilaydi do'stlar bilan muloqot, o'yinlarda hamkorlik, boshqalar his-tuyg'ularini tushunish stressli vaziyatlarda xotirjamlik, xafagarchilik va qo'rquvni boshqarish oddiy kundalik vazifalarni mustaqil bajarish (ovqatlanish, kiyinish, tartib saqlash) ijtimoiy va hissiy rivojlangan bolalar sinfdagi tartib-intizomga va o'qish jarayoniga tez moslashadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida keng imkoniyatlarni yaratish zarurati va ahamiyati, shuningdek, maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rish modellarining yo'qligi. 6-7 yoshli bolalarni kompleks rivojlantirish va o'qitish uchun "Ilm yo'li" dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash zarur. Ushbu dastur bolalarni maktabga tayyorlashning xalqaro tajribasini hisobga olgan holda bolani har tomonlama va rivojlantirish, tarbiyalash va o'qitish, maktabga samarali tayyorlashni ta'minlashga qaratilgan hujjatdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. Rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini

shakllantirish safda bir, ikki, to'rt kishi bo'lib yurish ijtimoiy-hissiy (emotsional) rivojlanish, o'z hissiyotlarini nazorat qilishni o'rganish, nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari bolaning og'zaki nutqini yoshiga muvofiq mustahkamlash ijodiy rivojlanish hamkorlikdagi faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish, ritm hissin, musiqani his etish fazilatini harakatlarda ritmik ifodalilikni tarbiyalashdan iboratdir.

6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar jismoniy va fiziologik jihatdan rivojlanish, emotsional sohalaridagi rivojlanishlar yangi shaxsiy hayotga debocha hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bolaning hissiy rivojlanishi – bu uning idrokining rivojlanishi va ob'ektlarning tashqi xususiyatlari: ularning shakli, rangi, o'lchovi, fazodagi holati, shuningdek hidi, ta'mi haqidagi g'oyalarni shakllantirish. Erta va maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiy rivojlanishning ahamiyatini yaxshilash, atrofimizdagi dunyo haqidagi g'oyalarni to'plash uchun eng qulaydir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga tizimli yondashuv asosida kattalar va tengdoshlari bilan muloqatchanlikka o'rgatish hissi, psixologik zo'riqishlarga nisbatan bardoshli bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashishimiz lozim. Bolalar jamoasini shakllantirish axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalar o'z xulqlarining jamoa manfaati bilan bog'liqligi haqidagi bahoni eshitadilar. Bola jamoa fikri va bahsi bilan hisoblashsa, o'zining jamoa uchun zaruriyatini sezsa, u bilan g'ururlansa, umumiy hayotning yoqimli va quvonchli bo'lishi uchun intilsa, bu jamoaning yetarli darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganimda, maktabgacha 6–7 yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan talablar ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va hissiy jihatdan tayyorligini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu yosh guruhida har tomonlama rivojlanishning ilmiy asoslangan me'yorlarini belgilash maktabga moslashuv va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatni kafolatlaydi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuv individual xususiyatlarni hisobga olgan holda bolalarning qobiliyat va imkoniyatlarini to'liq rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z.T.Nishonova. M. Xolnazarova. "Rivojlanish psixologiyasi". Toshkent. 2019
2. Antonova, T.V. 6-7 yosh bolalarning maktabgacha ta'lim sharoitida rivojlanishi. Sankt-Peterburg: Rech 2015
3. Kalmuratov T.N. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini boshqarish samaradorligini baholashga oid yondashuvlar. 2018